



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal
Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi № 066379-
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga
olingan va O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2025-
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'.Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
Yusupov Gulboy Amirovich
E-mail: gulboy_yusupov@tues.uz

UZOQ MUDDATLI AKTIVLARDA ADAPTIV AMORTIZATSIYA USULI

ANNOTATSIYA

Maqolada uzoq muddatli aktivlarning amortizatsiyasini hisoblashda mavjud chiziqli usulning cheklovlari ko'rsatilib, ularga alternativ sifatida adaptiv amortizatsiya usuli taklif etiladi. Ushbu usulda amortizatsiya nafaqat vaqt omiliga, balki aktivning real ishlash hajmi, texnik va iqtisodiy eskirish ko'rsatkichlariga mos holda hisoblanadi. Tadqiqotda adaptiv usulning ilmiy yangiligi sifatida eskirish koeffitsienti kiritilishi hamda balans qiymatini har yili real holatga mos yangilab borish taklifi ilgari surilgan. Amaliy misol orqali adaptiv usulning chiziqli usulga nisbatan moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va investitsion qarorlar uchun ishonchlilikni oshirishi asoslab berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, adaptiv amortizatsiya usuli aktivlarning haqiqiy eskirish jarayonini aniq aks ettiradi va buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Uzoq muddatli aktivlar, amortizatsiya, adaptiv amortizatsiya usuli, eskirish koeffitsienti, balans qiymati, moliyaviy hisobot, ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy eskirish, texnik eskirish.

АДАПТИВНЫЙ МЕТОД АМОРТИЗАЦИИ ДОЛГОСРОЧНЫХ АКТИВОВ

АННОТАЦИЯ

В статье показаны ограничения существующего линейного метода расчета амортизации долгосрочных активов и предложен альтернативный адаптивный метод. В данном методе амортизация рассчитывается не только с учетом времени, но и с учетом фактического объема работы актива, а также показателей технического и экономического износа. В исследовании научной новизной адаптивного метода является введение коэффициента износа и ежегодное корректирование балансовой стоимости в соответствии с реальным состоянием. На практическом примере обосновано, что адаптивный метод повышает прозрачность финансовой отчетности и надежность инвестиционных решений по сравнению с линейным методом. Результаты показывают, что адаптивный метод амортизации точно отражает фактический процесс износа активов и способствует совершенствованию бухгалтерского учета.

Ключевые слова: долгосрочные активы, амортизация, адаптивный метод амортизации, коэффициент износа, балансовая стоимость, финансовая отчетность, объем производства, экономический износ, технический износ.

ADAPTIVE DEPRECIATION METHOD FOR LONG-TERM ASSETS

ABSTRACT

The article highlights the limitations of the existing straight-line method for calculating depreciation of long-term assets and proposes an alternative adaptive method. In this approach, depreciation is calculated not only based on time but also according to the actual operational output of the asset, as well as technical and economic wear indicators. The scientific novelty of the adaptive method lies in introducing a wear coefficient and annually updating the balance value to reflect the asset's real condition. A practical example demonstrates that the adaptive method improves the transparency of financial statements and enhances the reliability of investment decisions compared to the straight-line method. The results indicate that the adaptive depreciation method accurately reflects the actual wear process of assets and contributes to improving the accounting system.

Keywords: long-term assets, depreciation, adaptive depreciation method, wear coefficient, balance value, financial reporting, production volume, economic wear, technical wear.

KIRISH

Uzoq muddatli aktivlarning eskirishini tadqiq etish iqtisodiy va moliyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, bu

tadqiqot korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, chunki asosiy vositalarning eskirishi ularning qiymatini kamaytiradi va amortizatsiya xarajatlarini

belgilashga yordam beradi. Shuningdek, aktivlarning eskirish sur'ati va muddati haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish orqali korxonalar resurslarini samarali rejalashtirish, yangilash va modernizatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayon, shuningdek, soliq hisob-kitoblari, moliyaviy hisobotlar va investitsiya rejalarini to'g'ri shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi, chunki eskirish darajasi asosiy vositalarning qiymatini va foyda ko'rsatkichlarini bevosita ta'sir qiladi. Natijada, uzoq muddatli aktivlarning eskirishini tahlil qilish korxonalar faoliyatining barqarorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Oddiy (chiziqli) amortizatsiya usulida aktivning boshlang'ich qiymati yil davomida teng ajratmalar bilan kamaytiriladi. Masalan, 50,000 qiymatdagi mashina 5 yil ishlasa, har yili 10,000 amortizatsiya ajratiladi. Shu bilan birga, bu usul aktivning haqiqiy ishlash hajmi, eskirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini hisobga olmaydi. Natijada balansdagi qiymat real holatni aks ettirmaydi, bu esa moliyaviy hisobotning investitsion va soliq qarorlaridagi ishonchligini kamaytiradi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda aktivlar yil davomida turlicha yuklanadi. Ba'zi yil mashina intensiv ishlasa, ba'zi yil kamroq ishlaydi. Chiziqli usul bu farqni hisobga olmaydi, shuning uchun balansdagi qiymat va foyda noto'g'ri ko'rsatiladi.

Shuningdek, investor va moliyaviy qaror qabul qiluvchi organlar aktivning haqiqiy ishlash darajasiga moslangan ma'lumotga muhtoj. Shu bois, balans qiymatini real ishlash darajasiga moslashtiradigan adaptiv amortizatsiya usuliga o'tish zarur [9].

Adabiyotlar tahlili. Uzoq muddatli aktivlar hisobi ko'pgina olimlar tomonidan taqiq qilingan. Jumladan, O.Narzullaeva [1] ishida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mohiyati, ularning turlari, baholash prinsiplari, hisobga olish tartibi hamda eskirish (amortizatsiya) jarayonlari yoritilgan. Asosiy vositalarning tashkilot moliyaviy holatiga ta'siri, ularni to'g'ri hisobga olishning zaruriyati, shuningdek, nomoddiy aktivlar bilan bog'liq buxgalteriya amaliyoti haqida batafsil tahlil berilgan. Ishda amaliy misollar, hisobot shakllari va tegishli normativ hujjatlarga asoslangan yondashuvlar keltirilgan.

Ukrainalik taqiqotchilar Maslienikov Ye.I., Melnyk Yu.M. [2] ilmiy ishida asosiy vositalarning amortizatsiya qilish usullari va ularning foydalanish muddati normativ baza bilan mos ravishda o'rganilgan, shuningdek, zamonaviy sharoitlarda amortizatsiyaning asosiy funksiyalarini makro va mikro darajada aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda uzoq muddatli aktivlar hisobi organilgan bolsada, adaptiv hisoblash usuli organilmagan [4].

Tahlil va natijalar. Adaptiv amortizatsiya usulida aktivning amortizatsiyasi yil davomida faqat vaqtga emas, balki ishlab chiqarish hajmi va texnik eskirish koeffitsientlariga bog'liq hisoblanadi. Bu usul balansdagi qiymatni har doim real holatga moslashtiradi va investitsion qarorlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Adaptiv usulning ilmiy yangiligi: oddiy ishlab chiqarish birliklariga asoslangan hisoblashga qo'shimcha ravishda, eskirish va samaradorlik koeffitsientlari kiritiladi, shuningdek balansdagi qiymat har yil yangilanadi.

Amortizatsiyaning asosiy maqsadi — aktivning balansdagi qiymatini real holatga moslashtirish.

Oddiy chiziqli usul faqat vaqt bo'yicha kamaytiradi:

$$A_{chiz} = \frac{C_0}{n}$$

(1)

Bu yerda (C_0) — boshlang'ich qiymat, (n) — aktivning foydali muddati.

Kamchilik: real ishlash hajmi va samaradorlik hisobga olinmaydi.

Aktivning amortizatsiyasi uning ishlab chiqarish hajmi yoki ishlash darajasi (U_{t_t}) bilan mos bo'lishi kerak. Ammo ishlash hajmi maksimal imkoniyatga yetmasligi mumkin, shuning uchun normalizatsiya qilinadi:

$$A_t = C_0 \times \frac{U_t}{U_{max}}$$

(2)

Bu ishlab chiqarish birliklari bo'yicha amortizatsiya prinsipini beradi.

Aktiv faqat ishlash bilan emas, balki texnik nosozliklar va iqtisodiy samaradorlik pasayishi bilan ham qadrsizlanadi. Shu sababli eskirish koeffitsienti (d_t) kiritiladi.

Uzoq muddatli aktivlar, masalan mashina yoki uskuna, yillar davomida faqat tabiiy eskirish (amortizatsiya) bilan kamaymaydi. Ular texnik nosozliklar, qisqa muddatli buzilishlar, texnologik eskirish kabi omillarga ham duch keladi. Oddiy amortizatsiya usullari bu holatni hisobga olmaydi, shuning uchun balansdagi qiymat real holatni aks ettirmaydi. Shu sababli

har yilga eskirish koeffitsienti d_t kiritish orqali aktivning texnik holati va real samaradorligini hisobga olish mumkin. Bu balans qiymatini haqiqiy holatga yaqinlashtiradi va moliyaviy hisobotning shaffofligini oshiradi[6].

Bundan tashqari, aktivlar iqtisodiy jihatdan ham eskiradi: ishlab chiqarish samaradorligi yil sayin pasayishi yoki texnologik yangilanishlar sababli eski uskuna bozor qiymati kamayadi. Shuning uchun, d_t koeffitsienti aktivning iqtisodiy eskirishini ham hisobga oladi, ya'ni faqat fizik ishlash emas, balki foydalilik va iqtisodiy qiymatining kamayishini ham aks ettiradi. Shu yo'l bilan adaptiv amortizatsiya usuli nafaqat texnik, balki iqtisodiy real holatni balansga kiritadi va investorlar hamda soliq organlari uchun ishonchli ma'lumot beradi.

- ($d_t > 0$) bo'lsa, aktiv normal ishlashdan tashqari eskiradi.

- Bu koeffitsient yil davomida qo'shimcha amortizatsiya sifatida hisoblanadi.

Natijada adaptiv amortizatsiya formulasi:

$$A_t = C_0 \times \frac{U_t}{U_{max}} \times (1 + d_t)$$

(3)

- (C_0) - boshlang'ich qiymat;

- (U_t/U_{max}) - ishlash darajasiga moslash;

- ($1 + d_t$) - texnik va iqtisodiy eskirishni hisobga

olish;

- U_{max} - maksimal ishlash darajasi (normal holat.

- U_t - t yildagi real ishlash darajasi.

Balansdagi qiymat (Carrying amount) har yil amortizatsiya ajratmasi bilan yangilanadi:

$$C_t = C_0 - \sum_{i=1}^t A_i$$

(4)

Bu formula bilan har yil balansdagi qiymat real holatga mos keladi, oddiy chiziqli usuldan farqli o'laroq.

1. Ishlash hajmi bilan moslash: aktiv qancha ishlasa, amortizatsiya shuncha bo'ladi

2. Eskirish koeffitsienti: texnik va iqtisodiy holatni hisobga oladi

3. Balansdagi qiymatni yangilash: har yil balans real holatni aks ettiradi

4. IFRSga moslik: Carrying amount (balans qiymati) real ishlash va eskirishni hisobga oladi

Adaptiv amortizatsiya usulining amaliy misoli: Uzoq muddatli aktiv sifatida korxonada balansdagi mashina tanlandi. Aktivning boshlang'ich qiymati $C_0=50000$, maksimal ishlab chiqarish hajmi $U_{max}=100000$ birlik. Amortizatsiya davri 5 yil.

Yillik ishlab chiqarish hajmi (U_t) va eskirish koeffitsienti (d_t) quyidagicha belgilandi:

$d_t=0,1$ - texnik va iqtisodiy eskirishni hisobga oluvchi koeffitsient (10%)

Ishlab chiqarish hajmi: 1-yil 18 000; 2-yil 22 000; 3-yil 20 000; 4-yil 25 000; 5-yil 15 000.

Yuqoridagi formulaga asoslanib, har yillik amortizatsiya va balans qiymati quyidagicha hisoblandi:

$$A_t = 50\,000 \times \frac{U_t}{100\,000} \times 1 + 0.1$$

(5)

$$A_t = 50\,000 \times \frac{18\,000}{100\,000} \times 1.1 = 9\,900$$

(6)

$$A_t = 50\,000 \times \frac{22\,000}{100\,000} \times 1.1 = 12\,100$$

(7)

$$A_t = 50\,000 \times \frac{20\,000}{100\,000} \times 1.1 = 11\,000$$

(8)

$$A_t = 50\,000 \times \frac{25\,000}{100\,000} \times 1.1 = 13\,750$$

(9)

$$A_t = 50\,000 \times \frac{15\,000}{100\,000} \times 1.1 = 8\,350$$

(10)

Balansdagi qiymatlar 1-jadvalda berildi.

1-jadval

Balansdagi qiymatlar

Yil	Amortizatsiya A_t	Boshlang'ich qiymat C_0
0	-	50 000
1	9 900	40 100
2	12 100	28 000
3	11 000	17 000
4	13 750	3 250
5	3 250	0

5-yil oxirida mashina to'liq amortizatsiyalangan, balans qiymati 0 ga teng bo'ldi.

Chiziqli usul: har yili $C_0/5=10000$, balans qiymati yil oxirida: 40,000 → 30,000 → 20,000 → 10,000 → 0

Adaptiv usul: har yili ishlab chiqarish va eskirish koeffitsienti hisobga olinadi, natija yil davomida o'zgaradi: 9 900 → 12 100 → 11 000 → 13 750 → 3 250.

Adaptiv usul balansdagi qiymatni real ishlash va eskirish darajasiga moslashtiradi, oddiy chiziqli usul esa faqat vaqtga bog'liq[8].

Xulosa. Shunday qilib, ushbu misol shuni ko'rsatadiki:

Adaptiv amortizatsiya usuli aktivning haqiqiy ishlash darajasi va eskirishini hisobga oladi.

Balansdagi qiymat yil davomida haqiqiy holatga moslashadi, bu moliyaviy hisobotning shaffofligini oshiradi.

Oddiy chiziqli usul bilan solishtirganda, adaptiv usul investitsion qarorlar va soliq hisob-kitoblari uchun ishonchli ma'lumot beradi.

Adaptiv amortizatsiya usuli - bu uzoq muddatli aktivlarning amortizatsiyasini faqat vaqtga emas, balki real ishlash darajasi, ishlab chiqarish hajmi va samaradorlik ko'rsatkichlariga moslab hisoblash imkonini beruvchi hisoblash usulidir. Ushbu usul balansdagi aktiv qiymatini yil davomida har bir aktivning haqiqiy ishlash holatiga moslashtiradi, shuning uchun moliyaviy hisobotlar nafaqat vaqt bo'yicha, balki iqtisodiy va texnik jihatdan ham aniq bo'ladi.

Adaptiv usulning yana bir afzalligi shundaki, u texnik eskirish va iqtisodiy samaradorlikni hisobga oluvchi koeffitsientlarni qo'shish imkonini beradi. Natijada har yil balansdagi qiymat real holatga moslashadi, oddiy chiziqli usul bilan solishtirganda moliyaviy hisobotlar shaffof va ishonchli bo'ladi, bu esa investitsion va qarz berish qarorlarida muhim ahamiyatga ega. Quyida adaptiv amortizatsiya usulining diagramma tavsifi korsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Narzulloyeva Ozoda, Mustafoyeva Shaxlo Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi // JMBM. 2025. №11.

2. Масленников Евгений Иванович, Мельник Юрий Николаевич Методика учета амортизации активов предприятий. Раскрытие основных теоретических аспектов амортизации на микро- и макроуровнях // Экономика: реалии времени. 2012. №2 (3).

European Commission. Transparency and Accountability of Non-Profit Organisations. – Brussels, 2017.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar, ochiq axborot manbalari // <https://adliya.uz/> – Toshkent, 2024. –

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Buxgalteriya hisobi to'g'risida Qonun // <https://lex.uz/docs/> – Toshkent, 2016.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. 48-yalpi majlis bayonnomasi: 2024-yil uchun davlat budjeti muhokamasi [Elektron resurs] // "Daryo" / Madina Nurman. – Toshkent, 2023. – URL: <https://daryo.uz/> (sana kirish: 06.01.2026).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

Moliyaviy hisobot va budget siyosati bo'yicha ma'lumotlar // www.mf.uz. – Toshkent, 2024.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat budjeti to'g'risidagi qonun va hisobotlar. – Toshkent, 2024.

Karimov I. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 312 b.

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy ko'rsatkichlari // www.stat.uz. – Toshkent, 2024.